

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA TARBIYAGA OID AKSIOLOGIK YONDASHUV MASALALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15663793>

Yuldashev Javoxir Abdurahim o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
yuldashevjavohir2018@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida aks etgan tarbiya masalalari aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Asarda insonni komillik sari yo‘naltiruvchi qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar va ma’naviy tarbiyaga oid g‘oyalalar keng yoritilgan. Muallif fikricha, jamiyatning barqarorligi va rivoji to‘g‘ri tarbiya va ma’rifatli inson orqali ta’minlanadi. Maqolada ushbu g‘oyalalar zamonaviy pedagogik konsepsiylar bilan bog‘lanib, ularning bugungi kundagi ahamiyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Qutadg‘u bilig, Yusuf Xos Hojib, tarbiya, aksiologiya, qadriyat, ma’naviyat, axloq, pedagogik meros.

Ma’naviyat va axloq tarbiyasi har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Bu xususda har bir xalqning ma’naviy merosi, adabiyoti va tarixiy manbalarining o‘rni beqiyosdir. Turkiy xalqlar ma’naviy merosida alohida o‘rin tutadigan asarlardan biri – Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridir. Ushbu asar faqatgina davlat boshqaruvi yoki siyosiy tuzum haqidagi g‘oyalarni emas, balki inson shaxsiyatini shakllantirish, tarbiyalash, kamolot sari yetaklash kabi murakkab tarbiyaviy muammolarni ham o‘z ichiga oladi. Yusuf Xos Hojib XI asrda yashab ijod etgan, va u o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida insonni ma’naviy va axloqiy jihatdan yetuklikka olib boruvchi muhim qadriyatlarni targ‘ib qilgan. Asarning nomidagi “Qutadg‘u” so‘zi “saodatli bo‘lishga yetaklovchi”, “bilig” esa “bilim, ma’rifat” ma’nosini anglatadi. Bu esa asarning umumiyy g‘oyasi – insonni baxt sari, ma’rifat sari yetaklash ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur asardagi g‘oyalalar zamonaviy aksiologiya – ya’ni qadriyatlar haqidagi ta’limot bilan uzviy bog‘liq. Aksiologik yondashuv ta’lim va tarbiya sohasida inson hayotidagi ma’naviy, axloqiy, madaniy qadriyatlarning o‘rnini tushunish va ularni shakllantirishga qaratilgan. “Qutadg‘u bilig”da bu yondashuv alohida o‘rin tutadi. Asardagi qahramonlar – Kunto‘g‘di (adolat), Aytoldi (baxt), O‘g‘dulmish (aql) va Odgurmish (rivojlangan nafs) kabi shaxslar orqali qadriyatlar targ‘iboti amalga oshirilgan. Asar ta’lim tarbiya sohasida nafaqat o‘rta asrlar, balki hozirgi zamon uchun ham katta ahamiyatga ega. Undagi fikrlar insonning ichki olami, axloqiy tarbiya, vijdon, ilmga bo‘lgan ehtiyoj, adolat va mas’uliyat kabi masalalarni qamrab oladi. Shuningdek, bu asar orqali yosh

avlodning faqat bilim emas, balki yetuk shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi g‘oyalar sistemasi yaratiladi.

Asarda aks etgan qadriyatlar tizimi orqali inson kamolotini ta’minlashga bo‘lgan urinishlar o‘rganiladi va bu g‘oyalarning bugungi kunda qanday o‘rin tuta olishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Mazkur maqolada aynan “Qutadg‘u bilig” asarida aks etgan tarbiyaviy g‘oyalar aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ularning zamonaviy ta’limdagi to‘rta muxim ahamiyati ochib berildi.

Qutadg‘u bilig”dagi tarbiya tushunchasi - Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida tarbiyani inson kamolotiga olib boruvchi asosiy vosita sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, inson faqat jisman emas, ruhan va ma’nан tarbiya topmog‘i lozim. Asardagi asosiy qahramonlar – Kunto‘g‘di, Aytoldi, O‘g‘dulmish va Odgurmish kabi shaxslar orqali tarbiyaning turli jihatlari namoyon bo‘ladi. Masalan, Kunto‘g‘di obraqi orqaliadolat, Aytoldi orqali baxt, O‘g‘dulmish orqali aql, Odgurmish orqali ruhiy poklik va hayot falsafasi ifodalanadi. Bu obrazlar muayyan qadriyatlarni ifodalab, tarbiya jarayonida qanday qadriyatlarga e’tibor qaratish kerakligini ko‘rsatadi. Yusuf Xos Hojib inson tarbiyasini faqat oilada emas, balki davlat boshqaruvi va jamiyat munosabatlari doirasida ham ko‘radi. U jamiyatning barqarorligi ma’rifatli, axloqli va mas’uliyatli shaxslar orqali ta’minlanishini ta’kidlaydi.

Asardagi aksiologik g‘oyalar va ularning ifodalanishi - Aksiologiya – qadriyatlar haqidagi ta’limot sifatida inson hayotida muhim o‘rin tutadigan ma’naviy, axloqiy va madaniy mezonlarni o‘rganadi. “Qutadg‘u bilig” asarida esa bu qadriyatlar mustahkam ildiz otgan. Asardagi har bir mulohaza, har bir nasihat insonni ma’naviy yuksalishga da’vat etadi. Masalan, bilim,adolat, insof, to‘g‘rilik, sabr, vijdon, poklik kabi tushunchalar tarbiyaning asosiy mezonlari sifatida qo‘yiladi. Muallif “aql”ni inson fe’l-atvorini boshqaruvchi kuch deb biladi. Shuningdek, “baxt” va “odob” tushunchalari ham inson hayotidagi muhim ma’naviy qadriyatlarni sifatida talqin qilinadi. Yusuf Xos Hojib fikricha, baxt va shon-sharafga erishish uchun inson avvalo aql, ilm,adolat va odob-axloq mezonlariga tayana olishi kerak.

Asardagi qahramonlar orqali aksiologik tarbiyani berish- Asar didaktik mavzunda yozilgan bo‘lib, to‘rt asosiy qahramon orqali muayyan qadriyatlarni tizimi yaratiladi:

Kunto‘g‘di –adolatni ifodalaydi. U davlat boshqaruvida to‘g‘rilik va insofni ustuvor deb biladi.

Aytoldi – baxt ramzi. U inson baxtining ilm, odob va aql bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

O‘g‘dulmish – aql va xirad egasi. Uning mulohazalari inson ma’naviyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Odgurmish – ruhiy poklik va zohidlikni ifodalovchi obraz. U orqali muallif nafsni tozalash, moddiy hayotga berilmaslik g‘oyasini targ‘ib qiladi.

Bu qahramonlar orqali asardagi tarbiyaviy qadriyatlar nafaqat nazariy jihatdan, balki hayotiy misollar asosida ham yoritiladi.

Zamonaviy ta'linda “Qutadg‘u bilig” aksiologyasining ahamiyati - Hozirgi ta'lim tizimida aksiologik yondashuv keng qo'llanilayotgan bo'lib, bu metodologiya insonni faqat bilimli emas, balki ma'nан barkamol, jamiyatda faol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. “Qutadg‘u bilig”da keltirilgan g‘oyalar – bugungi ta'linda foydalanilayotgan konsepsiylar bilan uyg‘unlashadi:

Ta'linda shaxsiy yondashuv (individualizatsiya) – O‘g‘dulmish obrazi orqali anglashilib, har bir insonning aqliy salohiyatini rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

Axloqiy tarbiya – Kunto‘g‘di va Odgurmish obrazlari bu yo‘nalishda eng namunali manba hisoblanadi.

Ta'linda motivatsiya va ma'naviy ruhlantirish – Aytoldining baxt va saodat haqidagi ta'limoti bugungi psixologiya va pedagogikaning asosiya maqsadlaridan biriga mos tushadi.

Shu bois,

mazkur asar mazmunini maktab, lisey va oliy ta'lim darsliklariga kiritish,yoshlarda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg‘usini rivojlantirishda juda samarali bo‘lishi mumkin.Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari – nafaqat adabiy yodgorlik, balki tarbiyaviy va axloqiy g‘oyalar bilan sug‘orilgan mukammal pedagogik qo'llanma hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan aksiologik g‘oyalar inson shaxsiyatini yuksaltirish, ma'naviy va axloqiy tarbiyani mustahkamlash, jamiyatdaadolat, insof, vijdon, mas‘uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgandir. Asardagi Kunto‘g‘di, Aytoldi, O‘g‘dulmish va Odgurmish obrazlari orqali muallif har bir shaxsda mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiya qadriyatlar –adolat, baxt, aql va ma'naviy poklikni namoyon etgan.

Bu qadriyatlar insonni jamiyatda munosib o‘rin egallahsga, hayotda muvaffaqiyatga erishishga, o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limdagi aksiologik yondashuvning asosiya vazifalaridan biri – shaxsda umuminsoniy, milliy va ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda barkamollikni shakllantirishdir. Bu borada “Qutadg‘u bilig” asarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, uning g‘oyalari asosida interfaol darslar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, yoshlarda axloqiy fazilatlar va mas‘uliyat tuyg‘usini kuchaytirish muhim amaliy ahmiyatga ega.

Shuni ta'kidlash joizki, “Qutadg‘u bilig” asarida aks etgan tarbiyaviy g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Balki, globallashuv, axborot xuruji va ma'naviy inqiroz sharoitida ushbu asar orqali inson ongini, qalbini va fe'l-atvorini yuksaltirishga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda.

Mazkur asarni faqat adabiy yodgorlik sifatida emas, balki zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida faol qo'llanilishi lozim bo‘lgan axloqiy-ma'rifiy manba sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Tarjima va tahrir: A. Hayitmetov, V. Mo‘minov. – Toshkent: Fan, 1990.

2. Hakimov N. Turkiy adabiyot va axloqiy tarbiya masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
3. Hayitmetov A. O‘rta asrlar turkiy adabiyoti va uning tarixiy ahamiyati. – Toshkent: Fan, 1983.
4. Qurbanova M. Aksiologiya va ta’limda qadriyatlar tizimi. – Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2018.
5. Safarov Sh. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
6. Abdullayeva D. Tarbiya nazariyasi: Aksiologik yondashuv asosida. – Toshkent: Ta’lim, 2019.
7. Berdyayev N.A. Filosofiya tvorchestva, kultury i iskusstva. – Moskva: Respublika, 1994.
8. Husanov Q. O‘zbek xalq pedagogikasida axloqiy qadriyatlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
9. Nishanova S. Ta’limda aksiologik yondashuv va uning amaliy ahamiyati. // “Pedagogika ilmi” jurnali, 2020, №4. – B. 42–47.
10. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
11. Yuldashev, Dj "Vzaimosvyazъ razvitiya istoricheskogo soznaniya i aksiologicheskogo mirovozzreniya v vospriyatiи studentov." Obщество и инновации 2.3/S (2021): 53-58.
12. Yuldashev J. Developing axiological world view in students in teaching history //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – S. 281-283.
13. Yuldashev J. Aksiologicheskiy Podxod V Obuchenii Istorii: Soderjatelnыу Komponent //“ONLINE-CONFERENCES” PLATFORM. – 2021. – S. 185-187.
14. Yuldashev J. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini aksiologik pozisiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati //Scientific-theoretical journal of International education research. – 2024. – T. 2. – №. 1. – S. 76-78.
15. Yuldashev D. Talabalarda tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashni rivojlantirishning o‘zaro aloqadorligi //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – S. 53-58.